“T A S D I Q L A Y M A N” TDYU
huzuridagi M.S.Vosiqova nomidagi
akademik litseyi direktori v.v.b.
T. Akbaraliyev

27.10.2026-yil

Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litseyi pedogog va xodimlarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirib borish yuzasidan o‘tkazilgan o‘quv-seminar
BAYONNOMASI

2026-yil 27-oktabr **Toshkent shahri**

Boshlanish vaqti: 15:^{00}.
Tugash vaqti: 15:^{55}.

Raislik qiluvchi: Yig‘ilish raisi	Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litseyi direktori v.v.b. T.Akbaraliyev
Qatnashchilar: Yig‘ilish a’zolari	U.Ismoilov, Sh.Atakulov, B.Kuchkanov, N.Muxiddinov, N.Ruziyev, A.Ochilov, D.Nabiyeva hamda pedogog va xodimlar
Yig‘ilish kotibi:	S.Mamaxalilova.

K U N T A R T I B I :

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori tomonidan 2026-yil 7-oktabrdagi tasdiqlangan “Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi akademik litseylarda korrupsiyaga qarshi kurashish va davlat xaridlari sohasida korrupsiyaviy xavflarni kamaytirish bo‘yicha 2026/2027 o‘quv yili uchun mo‘ljallangan chora-tadbirlar rejasi”ning 6 va 7-bandlari ijrosini ta’minlash maqsadida akademik litsey pedogog va xodimlari ishtirokida korrupsiya haqida xabar berish kanallari bo‘yicha xodimlarning xabardorligini oshirish hamda davlat xarid jarayonlarida manfaatlar to‘qnashuvi va affillanganlik xavflari barvaqt aniqlash bo‘yicha seminar.

(*T.Akbaraliyev, U.Ismoilov, S.Mamaxalilova*)

Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litseyi (keying o‘rinlarda – akademik litsey)da pedogog va xodimlarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirib borish yuzasidan o‘tkazilgan o‘quv-seminar bo‘yicha yig‘ilish raisi T.Akbaraliyev olib bordi va so‘zini davomida Toshkent davlat yuridik universiteti rektori tomonidan 2026-yil 7-oktabrdagi tasdiqlangan “Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi akademik litseylarda korrupsiyaga qarshi kurashish va davlat xaridlari sohasida korrupsiyaviy xavflarni kamaytirish bo‘yicha 2026/2027 o‘quv yili uchun mo‘ljallangan chora-tadbirlar rejasi”ning 7-bandi ijrosini ta’minlash maqsadida Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litseyining pedagog va xodimlarga korrupsiya haqida xabar berish kanallari xodimlarning xabardorligini oshirish hamda davlat xarid jarayonlarida manfaatlar to‘qnashuvi va affillanganlik xavflari barvaqt aniqlash bo‘yicha o‘quv-seminar tashkil etilganligini hamda pedagog va xodimlar o‘rtasida tizimli ravishda targ‘ibot ishlarini amalga oshirish lozimligini ta’kidlab o‘tdi.

Yig‘ilish raisi T.Akbaraliyev shundan so‘ng, so‘z navbatini akademik litseyning yuriskonsulti U.N.Ismoilovga berdi, u so‘zga chiqib, pedagog va xodimlarga korrupsiya haqida xabar berish kanallari hamda davlat xarid jarayonlarida manfaatlar to‘qnashuvi xodimlarning xabardorligini oshirish va affillanganlik xavflari barvaqt aniqlash bo‘yicha tushunchalarni berib o‘tdi.

Jumladan, **Davlat xaridlari jarayonida manfaatlar to‘qnashuvi** – mansabdor shaxslar yoki xarid jarayonida ishtirok etuvchi mas’ul xodimlarning shaxsiy manfaatlari ularning xizmat vazifalarini xolis, adolatli va qonuniy bajarishiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan holat hisoblanadi.

Manfaatlar to‘qnashuvi har doim ham qonunbuzarlik sodir etilganini anglatmaydi. Biroq bunday holatni o‘z vaqtida aniqlamaslik, oshkor qilmaslik va tegishli choralar ko‘rmaslik davlat xaridlarida korrupsiya, tanish-bilishchilik va budjet mablag‘laridan samarasiz foydalanish xavfini yuzaga keltiradi.

Affillanganlik – shaxslar yoki tashkilotlar o‘rtasida nazorat, bog‘liqlik, umumiy mulkdorlik, boshqaruv yoki boshqa qonunchilikda nazarda tutilgan aloqalar mavjudligini anglatadi.

Davlat xaridlarida affillanganlik xavfi, ayniqsa, o‘zaro bog‘liq korxonalar mustaqil va raqobatbardosh ishtirokchilardek ko‘rinishda qatnashganda yoki xarid natijalariga ta’sir ko‘rsatish imkoniyati mavjud bo‘lganda namoyon bo‘lishi mumkin.

Manfaatlar to‘qnashuvi va affillanganlik xavflarining asosiy belgilari quyidagi holatlar alohida e’tibor va tekshiruvni talab etiladi:

xarid komissiyasi a’zosi yoki mas’ul xodim ishtirokchilardan birining ta’sischisi, rahbari yoki boshqa manfaatdor shaxsi bilan bog‘liq bo‘lsa;

buyurtmachi tashkilot xodimi o‘ziga, yaqin qarindoshiga yoki boshqa aloqador shaxsga manfaat keltirishi mumkin bo‘lgan qaror qabul qilishda qatnashsa;

turli ishtirokchilarning ta’sischilari, rahbarlari, aloqa ma’lumotlari yoki manzillari o‘rtasida izoh talab qiladigan o‘xshashliklar aniqlansa;

bir nechta ishtirokchining takliflari, hujjatlari yoki narxlari o‘zaro muvofiqlashtirilgandek taassurot uyg‘otsa;

texnik topshiriq muayyan yetkazib beruvchiga asossiz ustunlik beradigan tarzda tuzilsa;

ishtirokchilardan biriga boshqa ishtirokchilarga berilmagan ma’lumot yoki imtiyoz taqdim etilsa;

xarid natijalariga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan aloqalar yashirilsa yoki manfaatlar to‘qnashuvi haqida belgilangan tartibda ma’lumot berilmasa.

O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 23-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga, korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlik muqarrarligini ta’minlashga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-1155-son Qonuninig 1-moddasi 13-bandiga muvofiq **Korrupsiyaga oid jinoyatlar** — 1) JK 167-moddasi uchinchi qismining “d” bandida, 168-moddasi to‘rtinchi qismining “g” bandida, 192^{9}, 192^{10}-moddalarida, 192^{11}-moddasi ikkinchi qismining “v” bandida, 205-moddasi ikkinchi qismining “v” bandida, 206-moddasi ikkinchi qismining “v” bandida, 208-moddasining ikkinchi qismida, 209-moddasi ikkinchi qismining “v” bandida, 210, 211, 212, 213, 214, 2141, 2142-moddalarida va 301-moddasi ikkinchi qismining “b” bandida nazarda tutilgan jinoyatlar; 2) JKning 243-moddasida nazarda tutilgan jinoyat, agar mazkur jinoyat korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etish natijasida olingan daromadlarni legallashtirish bilan bog‘liq holda sodir etilgan bo‘lishi nazarda tutilgan.

Shu bilan birga pedagog va xodimlarga korrupsiya haqida xabar berish kanallari xodimlarning xabardorligini oshirish yuzasidan doimiy ravishda targ‘ibot tadbirlari o‘tkazib kelinmoqda.

Xususan, Adliya vazirligi va TDYUning korrupsiya haqida xabar berishga mo‘ljallangan “Ishonch telefoni” hamda Telegram-botlari haqidagi ma’lumotlarni litseyning axborot stendlari, eslatmalari va elektron axborot kanallarida joylashtirish maqsadida akademik litseyda quyidagi korrupsiya haqida xabar berishlik uchun aloqa kanallari, ichki me’yoriy hujjatlar va qonunchilik hujjatlari joylashtirilganligini (*havolalar orqali tanishishlari mumkin*) bayon qilib so‘zini yakunladi.

Korrupsiyaga nisbatan mutlaq murosasizlik siyosati amal qiladi. Agar akademik litseyda korrupsiya holatlariga duch kelsangiz, bu haqida Telegram-bot **(https://t.me/tsul_litsey_murojaat_bot)** orqali anonim tarzda shuningdek, TDYU Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limiga **+99871 233-42-09** telefon raqami yoki **@tsul_anticorbot** va **@tsul_anonimbot** Telegram botlari orqali murojaat qilishingiz mumkin. Murojaat qiluvchining shaxsi va u tomonidan taqdim etilgan barcha ma’lumotlar qat’iy maxfiy saqlanadi.

1) O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonuni;

2) Korrupsiyaga qarshi kurash bo’yicha Adliya vazirligining idoraviy hujjatlari;

3) Korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha Toshkent davlat yuridik universitetining idoraviy hujjatlari;

4) Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litseyda “Korrupsiyaga qarshi kurash: qonunchilik va amaliyot”mavzusida tashkil etilgan seminar bayonnomasi va fotolavhalar;
5) Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litseyning “Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha hisobotlari;
6) Korrupsiya – kelajakka tahdid;
7) Korrupsiyani oldini olish chora-tadbirlari;
8) Yoshlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarni oldini olish choralari;
9) Korrupsiyadan holi muhitni yaratish;
10) Korrupsiyaga qarshi umminitet hosil qilish;
11) Korrupsiyaning paydo bo'lish sabablari.

Ushbu yig‘ilish yakunida pedogog va xodimlari tomonidan o‘zlarining qiziqtirgan mavzuga oid berilgan savollarga akademik litseyning yuriskonsulti U.N.Ismoilovdan to‘liq javob oldilar.

Shundan so‘ng, yig‘ilish raisi T.Akbaraliyev so‘zga chiqib, bunday o‘quv-seminar har chorakda kamida bir marotaba tashkil etib borilishini ma’lum qilib, muhokamani yakunlab, kun tartibidagi masala yuzasidan kimda qanday taklif va mulohazalar borligini, agar taklif va mulohazalar bo‘lmasa kun tartibidagi masala bo‘yicha yig‘ilish ishtirokchilaridan qaror qabul qilishini so‘radi.

Mazkur masala bo‘yicha yig‘ilish ishtirokchilari tomonidan

QAROR QILINDI:

1. Toshkent davlat yuridik universiteti rektori tomonidan 2026-yil 7-oktabrdagi tasdiqlangan “Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi akademik litseylarda korrupsiyaga qarshi kurashish va davlat xaridlari sohasida korrupsiyaviy xavflarni kamaytirish bo‘yicha 2026/2027 o‘quv yili uchun mo‘ljallangan chora-tadbirlar rejasi”ning 6 va 7-bandlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. “Elektron litsey” bo‘limi boshlig‘i M.Qo‘chqorov xabar berish kanallaridagi ma’lumotlarning dolzarbligini muntazam tekshirsin va belgilangan tartibda rahbariyatga axborot kiritib borsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Yuriskonsult **U. Ismoilov**